

## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

### PSORIATIK ARTRITLI BEMORLARDA NOALKOGOL YOG'LI GEPATOZINING RIVOJLANISHIDA SITOKINLARNING AHAMIYATI.

Muxsimova N.R

Toshkent tibbiyot akademiyasi

O'zbekiston, Toshkent

Muxsimova Nilyufar Raximjonovna

**Tadqiqot maqsadi:** Psoriatik artrit noalkogol yog'li gepatoz kasalligi bilan birga kelganda bemorlarda sitokinlarning o'rnini o'rganish.

Psoriatik artrit – autoimmun xarakterli xususan teri, shuningdek bo'gimlar va ichki a'zolarning zararlanishi bilan kuzatiluvchi surunkali yallig'lanish kasalligi xisoblanadi. Psoriatik artritda metabolik sindrom rivojlanish xavfi yuqori turadi qaysiki, metabolik sindromda gepatobiliar sistemada eng ko'p uchraydigan noalkogol yog'li gepatoz kasalligi hisoblanadi.

**Materiallar va usullar.** Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi IADKda va ichki kasalliklar reabilitasiyasi bo'limida davolangan 120 ta psoriatik artritli bemorlar kuzatuvga olindi. Ulardan 70 tasi ayol, 50ta erkak bo'lib 18 yoshdan 75 yoshgacha, o'rtacha yoshi  $52,5 \pm 0,9$  yosh. Bemorlar ikki guruhga bo'lib o'rganildi. 1-guruh psoriatik artrit va 2-guruh psoriatik artrit noalkogol yog'li gepatoz kasalligi bilan birga kelgan bemorlar tekshirildi. 1-guruhsda 50 ta bemor, 2-guruhsda 70 ta bemor o'rganildi. Birinchi kelgan bemorlarni TVI, abdominal indeks, laborator tekshiruvlardan esa SRO, EChT, ALT, AsT, glyukoza, lipid spektri, bilirubin; instrumental tekshiruvlardan jigar UTTsi, fibroskan, HOMO indeksi hamda VASh, DAS, PASI, FLI indeksi o'tkazildi. Barcha bemorlarda leptin, adiponektin va o'sma nekroz omili (O'NO) miqdori davolashdan avval va davolashdan so'ng tekshirildi.

**Tadqiqot natijalari** shuni ko'rsatadiki, psoriatik artrit bilan kasallangan bemorlarda yog'li gepatoz uchrash xavfi yuqori turadi hamda qon zardobida aniqlangan leptin, adiponektin va O'NO miqdori ikkala guruhda solishtirilganda sezilarli farq kuzatildi.

Psoriatik artritli bemorlarni 1-guruhiiga nisbatan 2-guruh bemorlarda kasallikning faollik darjasи, TVI, laborator va instrumental tekshiruvlarda faollik yuqori bo'lishi aniqlandi. Tahlillar natijasidan shu ma'lum bo'ldiki, 1-guruhdagi bemorlarimizda davolashdan avval leptin miqdori  $22,93 \pm 0,25$ , davolashdan keyin  $23,27 \pm 0,34$ , adiponektin miqdori davodan oldin  $32,58 \pm 0,53$ , davolashdan keyin  $30,14 \pm 0,3$ , O'NO miqdori  $7,14 \pm 0,45$  ko'rsatkichni tashkil etdi. 2-guruhdagi



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

bemorlarimizda esa leptin miqdori 1-guruhdagi bemorlarga nisbatan baland, adiponektin miqdori esa birmuncha past, O'NO  $10,5 \pm 0,55$  miqdori baland ko'rsatkichni ko'rsatdi.

**Xulosa.** Kuzatuv va tahlillarga asoslanib psoriatik artrit noalkogol yog'li gepatoz bilan birga kelganda ikkala kasallikning kechishi og'ir kechdi, shuningdek kasallikning faolligiga ta'sir etuvchi asos bu sitokinlarning o'shishi bo'ldi.